# Ta'lim muassasalarida Pedagogik mahorat, oila pedagogikasi

p.f.d. Akademik. X.I.Ibraimov



“Ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham mazmuni ham muhit ham o‘zgarmaydi”.

Sh.M.Mirziyoyev

# ABU ALI IBN SINO



- Hech bir gap qolmadi ma’lum bo‘lmagan,
- Juda oz sir qoldi mavhum bo‘lmagan.
- Bilimim haqida chuqur o‘ylasam,
- Bildimki, hech narsa ma’lum bo‘lmagan.

# ABDURAHMON JOMIY
# (1414 –1492- YILLAR)

“Muallim bilimli, aqlli, adolatli o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”.

*Ustoz, muallimsiz, qolganda zamon,*
*Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon.*



Ma’lumki, hamma kasblarni ham avvalo ustoz-muallim o‘rgatadi.
Dastlabki saboqni ham o‘qituvchi beradi.
Dastlabki ona - Vatan so‘zlarining ma’nosini, mohiyatini ham o‘qituvchi o‘rgatadi. Shuning uchun ham
barcha kasblar ichida o‘qituvchilik-muallimlik kasbi o‘ta sharafli va mas’uliyatli hisoblanadi.

## Abdulla ORIPOV (1941–2016)

***Shoirdan so‘rashdi: siz mashho‘r inson,***
***El, yurt ardoqlaydi, hamma taniydi.***
***Shoir javob berdi: Menda bor armon,***
***Ustozim, desalar meni qaniydi.***

# Oʻqituvchilik kasbi – oʻz mohiyatiga koʻra oʻta individualdir.

Oʻqituvchi faoliyati uning mahoratida koʻrinadi.

Oʻqituvchilikda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur.

Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijalarga erishadi, oʻz ishining natijasi bilan moʻjizalar yaratadi, ijodkor boʻladi.

Pedagogik ishga qobiliyatli, isteʼdodli kishidagina pedagogik mahorat boʻlishi mumkin.

# PEDAGOGIK MAHORAT
## (Pedagogik Ensiklapediya 2017-y. 3-jild.)

**PEDAGOGIK MAHORAT**

- O'qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyat natijasi umumlashmasi bo'lib, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisidan iborat.

**PEDAGOGIK MAHORAT**

- kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi;
- shaxsiy kasbiy sifatlari, layoqat qobiliyatlarning majmui;
- san'at darajadagi mahorat;
- pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlikni ifodalovchi atama.

# Ta’lim jarayoni bu:

“O‘qituvchi va o‘quvchilarni maqsadga yo‘naltirilgan o‘zaro harakati bo‘lib, bunda o‘quvchilarning ta’lim olish vazifalari hal etiladi”.

# Ta’lim jarayonining vazifalari:

Ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish.

Ularning bilish faoliyatini tashkillashtirish.

Fikrlashni, xotirani, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish.

O‘quv ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish.

Ilmiy dunyoqarash va ma'naviy-estetik madaniyatni hosil qilish.

# •Oʻqituvchini mahorati qanday ishlarida namoyon boʻladi?

Mensiz ham, maktab baholari farzandingizning shaxsiyatini belgilamasligini juda yaxshi bilasiz. Baholash uning taqdirini bashorat qilmaydi - buni ham yodda tutishingiz kerak.

Buni unutib, bolaga yurgan odamdek qaraydigan o‘qituvchi uyalmog‘i kerak. Va raqamlarga qarab, u hukm qilinadi: u yaxshimi yoki yomonmi, qobiliyatlimi yoki yo‘qmi, rivojlanganmi yoki “rivojlanmagan”, undan odam chiqadimi yoki yo‘qmi. Axir, yillar o‘tadi va hayotning o‘zi ko‘rsatadiki, “yomon” talabalar yaxshi, mehribon odamlarga aylangan, ularning ba'zilari hatto katta iste'dod ko‘rsatgan. Ammo baholar tumani ortida o‘qituvchining ko‘zlari buni ko‘rmaydi.

**Shalva Amonashvili**

O‘qituvchilik mahoratining muhim belgilaridan biri o‘qituvchining pedagogik texnikasi yuqori darajasi hisoblanadi.

**“Pedagogik texnika”– “Pedagogik ensiklopediyalarda” – bu alohida talabalarga va talabalar jamoasiga pedagogik ta'sir etish usullarini amaliumumanyotda samarali qo‘llaniladigan, o‘qituvchi uchun zarur bo‘ladigan, majmuaviy bilim, ko‘nikma va malakalardir.**

Pedagogik texnika pedagogik mahoratning tarkibi hisoblanadi va pedagogika, psixologiya bo‘yicha chuqur bilimlarni, alohida amaliy tayyorgarlikni talab etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchining obro‘sini oshirish borasida zarur topshiriqlar berar ekan, “O‘qituvchining hurmat qilmagannni men ham hurmat qilmayman”, deb alohida ta’kidlagani videoselektorda alohida qayd etildi.



# OILA PEDAGOGIKASIDA
## Oila funksiyasi

Oila funksiyasi – bu oilani moddiy va ma’naviy qo‘llab - quvvatlovchi hamda ijtimoiylashuvini ta’minlovchi faoliyatni yurituvchi vazifa bo‘lib, uning asosini oilaning demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalari tashkil etadi.

- Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qilib aytadilar: “Kishining o‘z farzandini chiroyli odob-axloq bilan tarbiyalashi ko‘p miqdordagi nafl sadaqa berishidan yaxshiroqdir”.

- Boshqa bir hadisda: “Ota bolaga go‘zal odobdan yaxshiroq narsani bera olmaydi”, deiyiladi.

- Abu Ali ibn Sino farzand tarbiyasi haqida vasiyat qilib, bundaiy degan edi: “Yosh bola ta’lim-tarbiya oladigan joyda odob-axloqli, turishturmushi namunali kattalar bo‘lishi lozim.

Zero, yosh bola har bir narsani ularga taqlid qilib o‘rganadi va ular bilan do‘st bo‘ladi”.




"Eng katta baxt – men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch boʻlsin!

Oila kichik Vatan, oila tinch boʻlsa, baxtli boʻlsa, Vatan tinch boʻladi.

Oʻsha baxtli kunlarni, Vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi koʻrish hammamizga nasib etsin!".